В исследовании раскрываются теоретические и практические интерпретации категории риска, особенности их проявления на макро- и микроэкономическом уровнях, а также возможности снижения рисков посредством страховых механизмов. Страховой рынок рассматривается как неотъемлемый элемент процесса воспроизводства, при этом обоснованы его экономические функции на стадиях распределения и перераспределения.

Также проанализированы различия между понятиями страхового продукта и страховой услуги, их экономическая сущность, механизмы ценообразования и место в рыночной инфраструктуре. Научно обоснована необходимость распределения катастрофических рисков через международную систему перестрахования.

Результаты исследования служат теоретико-методологической основой для разработки практических предложений по усилению институциональной роли страхового рынка в стабилизации национальной экономики, совершенствованию современных механизмов управления рисками и повышению качества страховых услуг.

Ключевые слова: риск, управление рисками, страховой рынок, страховой институт, воспроизводство, экономическая устойчивость, страховой продукт, страховая услуга, глобализация, перестрахование, инвестиционные ресурсы, макроэкономические риски, катастрофические риски, финансовый рынок, страховая инфраструктура.

## KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston sug‘urta bozori keskin rivojlanib borayotgan milliy iqtisodiyotning bir bo‘g‘ini hisoblanib, sug‘urta tashkilotlari ushbu bo‘g‘inning, ya’ni sug‘urta bozorining asosiy komponenti hisoblanadi. O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning raqamli iqtisodiyotga transformatsiya jarayoni sharoitida sug‘urta bozori va sug‘urta tashkilotlarining innovatsion faoliyatini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Sug‘urta bozorining va uning asosiy komponenti — sug‘urta tashkilotlarining innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash hamda ushbu yo‘nalishda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun sug‘urta tashkilotlarining innovatsion faoliyati nazariy asoslari, tadrijiy rivojlanishi, sug‘urta bozori subyektlari faoliyati va sug‘urta xizmatlarini ommalashtirish jarayonlarini nazariy, uslubiy hamda metodologik jihatdan tadqiq etish talab qilinadi. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning o‘zgarishi sug‘urta xizmatlari ko‘lami va turlarini sezilarli darajada oshirishni nazarda tutadi.

Sug‘urta faoliyatini nazariy jihatdan tadqiq etadigan bo‘lsak, uni aholi farovonligini ta’minlash va aholini ijtimoiy himoya qilish, shuningdek, takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash maqsadida hamda tadbirkorlik nuqtayi nazaridan tijorat korxonasi, ya’ni daromad olishni nazarda tutuvchi faoliyat sifatida tahlil qilish mumkin. Jahon va milliy iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, milliy iqtisodiyotning raqamlashtirilishi sug‘urta bozoriga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot ta’siri ostida sug‘urta sohasiga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Sug‘urta bozorida tarkibiy o‘zgarishlar yuz bermoqda, sug‘urta vositachilarining maqsad va vazifalari o‘zgarib bormoqda, sug‘urta tariflarini hisoblashda professional sug‘urta aktuariylari xizmatlaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda, avariya komissarlari, adjasterlar va syurveyerlar faoliyati rivojlanmoqda, assistans xizmatlari hamda sug‘urta sohasiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va korxonalar soni ortib bormoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlangan sug‘urta bozorlariga nisbatan mutanosib rivojlanish tendensiyasiga ega emas. Masalan, umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta tashkilotlari soni 32 tani, hayot sug‘urtasi turlari bilan shug‘ullanuvchi sug‘urta tashkilotlari soni esa bir necha yildan buyon o‘zgarishsiz 8 tani tashkil etmoqda. O‘zbekiston sug‘urta bozorining nomutanosib rivojlanishining asosiy sabablari qatoriga aholi daromadlarining hududlar bo‘yicha farqlanishi, sug‘urta klassifikatori bilan tartibga solinadigan sug‘urta xizmatlari soni va turlari, sug‘urta xizmatlaridan foydalanuvchilar uchun berilayotgan soliq imtiyozlari, sug‘urta madaniyati darajasi, sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta turlari bo‘yicha olib borayotgan tarif siyosati va uning individuallashuvi, sug‘urtaning jamiyat hayotiga kirib borish darajasi, aholi va tadbirkorlik subyektlarining sug‘urta xizmatlaridan foydalanish intensivligi, sug‘urta tashkilotlarining to‘lov qobiliyati, sug‘urta to‘lovlarining tezkorligi va boshqa omillar kiradi.

Sug‘urta bozorining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashning asosi uning hozirgi holatini tahlil qilish va unga to‘g‘ri baho berishdan iborat. Sug‘urta bozorini maksimal darajada aniq tahlil qilish esa tizimli tahlil yondashuvlari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Sug‘urta bozorini tizimli tahlil qilish uning sifat va miqdor ko‘rsatkichlari prognozini yanada aniqlashtirish imkonini beradi. Sug‘urta bozori ijtimoiy-iqtisodiy tizimning muhim elementi hisoblanadi, shu sababli unga tizimli yondashuvni to‘liq va asosli ravishda qo‘llash mumkin. Sug‘urta bozorida yuzaga keladigan har qanday holatni tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilish katta evristik imkoniyatlarga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

S. Scawthom qayd etishicha, sug'urta sohasining rivojlanishini tadqiq qilish jarayonida tizimli yondashuv aksariyat hollarda qo'llanilgan. Shunga qaramay, sug'urta bozori infratuzilmasini o'rganishda cheklangan resurslardan foydalaniladi, vaholanki, sug'urta bozorini ham mega, mezo va mikrodarajada tahlil qilish taqozo etiladi[1].

Amerikalik olim Benjamin Friedman risk turlari bo'yicha aktivlarni diversifikatsiya qilish, yuzaga keladigan risklarni sug'urtalash va sug'urtalovchilar o'rtasida taqsimlash, ya'ni qayta sug'urtalash muammolarini ko'rib chiqqan. Benjamin Friedman ushbu jarayonlarni milliy iqtisodiyotdagi munosabatlar dinamikasi va uning infratuzilmasining turli ixtisoslashuvlaridan olinadigan foyda nuqtayi nazaridan baholaydi. Milliy iqtisodiyot subyektlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash maqsadida sug'urta tashkilotlari, banklar va nobank institutlari moliyaviy vositachi sifatida xizmat qiladi. Sug'urta tizimi va moliya bozori haqidagi institutsional nazariyada jamg'armalarni sanoat sektoridagi muqobil foydalanuvchilar o'rtasida resurslarni taqsimlovchi investitsiyalarga aylantirishni ta'minlaydigan shartli institutsional kelishuvlar sifatida tizimlash nuqtayi nazaridan ajratib ko'rsatish lozim[2].

John Richard Hicks, J. Keyns va Arthur Cecil Pigou fundamental asarlarida quyidagicha ta'kidlanadi: "moliya sektori tarkibiy qismlarining konseptual jihatlari investitsiya samaradorligining salbiy oqibatlarining oldini olish, investitsion risklarni bartaraf etish hamda akkumulyatsiya qilingan moliyaviy mablag'larning takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash maqsadida moliyaviy resurslarni taqsimlashning samaradorligi va zarurligi bilan belgilanadi"[3].

Ushbu nazariya vakillari Francis X. Sutton, Seymour E. Harris, Carl Kaysen va James Tobin moliya bozorlarini resurslarni taqsimlashda asosiy bo'g'in sifatida tadqiq qilgan hamda moliya bozori infratuzilmasini iqtisodiyotning ajralmas qismi, ya'ni asosiy bo'g'ini sifatida talqin etuvchi nazariyani ilgari surgan. Mualliflarning fikriga ko'ra, "moliya institutlari moliyaviy resurslarni yetkazib beruvchilar va ularning iste'molchilari o'rtasidagi axborot oqimlarining nomutanosibligini bartaraf etish uchun ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanish bo'yicha ixtisoslashgan tashkilotlardir. Ularning ixtisoslashuvi natijasida risklarni boshqarishni o'z ichiga olgan yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqilmoqda"[4].

Sug'urta sohasining tadrijiy rivojlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, sug'urta eng qadimgi ijtimoiy munosabatlarning iqtisodiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj mamlakatlarda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liq. Iqtisodchi olimlar D. Rey, A. Garrido va J. Calatrava sug'urtani "ishlab chiqaruvchilarni ijtimoiy, iqtisodiy, texnogen va tabiiy risklardan himoya qilish mexanizmi" sifatida baholaydilar[5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sug'urta tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslarini yoritish maqsadida ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy va tarixiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanilib, sug'urta institutining vujudga kelish zarurati va iqtisodiy mohiyati baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Risklarni boshqarish jarayonlarining tadrijiy tahlili uning moliya bozorining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ularning moliyaviy tarkibiy qismlari globallashuv jarayonlarida izchil shakllanishi omili bo'lgan risklarni boshqarishning yangi vositalarini ishlab chiqishga olib kelmoqda. Sug'urta bozori moliya bozorining asosiy bo'g'ini bo'lib, risklarni identifikatsiyalash, ularni boshqarish va asoratlarini bartaraf etish tizimiga kiradi. Tizimlar rivojlanish mantig'i va o'z ustuvorliklariga ega bo'lib, ularning asosiy maqsadi risklarni boshqarishdan iborat. "COVID-19" bilan bog'liq karantin cheklovlari, raqamlashtirish, aholi daromadlarining o'zgarishi, sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, yirik korxonalarning asosiy vositalari eskirishi va ularning yangilanishi, siyosiy ziddiyatlarning paydo bo'lishi, transmilliy korxonalar sonining ortishi va ularning faoliyati geografiyasining o'zgarishi kabi holatlar iqtisodiy munosabatlarning risklilik darajasi oshishiga olib kelmoqda. Jahondagi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarda risklarning yangi turlari paydo bo'lishi, ayrim

1 Scawthom S. Asian Catastrophe Insurance. / C.Scawthom, K.Kobayashi. 2008. April. – 165 p.
2 Benjamin Friedman. The Moral Consequences of Economic Growth, 2005.
3 John Richard Hicks. Collected Essays in Economic Theory, 1981-83, Keyns Dj. M. Общая teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. / Per. s angl. prof. N.N.Lyubimova; pod red. d.e.n., prof. L.P.Kurakova. – M: Gelios ARV, 2002. ISBN 5-85438-052-8. Arthur Cecil Pigou. // Brockhaus Enzyklopädie (nem.). / Hrsg.: Bibliographisches Institut & F. A. Brockhaus, Wissen Media Verlag.
4 Francis X. Sutton, Seymour E. Harris, Carl Kaysen, James Tobin. The American Business Creed, 1956.
5 Rey, D., Garrido, A. & Calatrava, J. (2016). Comparison of Different Water Supply Risk Management Tools for Irrigators: Option Contracts and Insurance. Environmental and Resource Economics, 65(2), 415-439. doi:10.1007/si 0640-015-9912-2

davlatlardagi iqtisodiy tanazzul, aholining madaniyati va dunyoqarashi, hayotdagi mulklarining oʻzgarishi, ayrim davlatlardagi demografik tanazzul, tugʻilishning kamayib, oʻlim sonining ortishi (Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlari misolida) va shu kabi holatlar risklarning turli-tumanligini koʻrsatmoqda. Demak, mavjud va yangi paydo boʻlayotgan risklarning tabiatini oʻrganish, ularning determinantlarini tadqiq etish va ularni sugʻurta xizmatlari orqali bartaraf etish imkoniyatlarini inobatga olib, risklarning iqtisodiy mohiyati hamda nazariy va uslubiy jihatlarini oʻrganish maqsadga muvofiq.

Risk tushunchasi va uning nazariy hamda amaliy yondashuvlari jahon va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan oʻrganilgan. Iqtisodiy-ilmiy maydonda risklarning mohiyati koʻplab fanlar doirasida, jumladan, riskologiya, menejment, sugʻurta ishi, sugʻurta iqtisodiyoti, sugʻurta nazariyasi, sugʻurta faoliyatini prognozlash va statistika, ekonometrika kabi fanlar doirasida tadqiq etilmoqda. Risklarni tizimli tahlil tamoyillariga asosan oʻrganish hamda ularning oqibatlarini kattalik darajasiga qarab baholash risklarni tadqiq etishda yagona mezon mavjud emasligini, olimlarning qarashlari turli ekanini va risklar boʻyicha olib borilishi mumkin boʻlgan tadqiqotlar hali yakuniga yetmaganini koʻrsatadi.

Riskni tizimli tahlil qilish sugʻurta sohasini tadqiq etishning asosini tashkil etadi. Sugʻurta faoliyatidagi risklarni oʻrganish asosan sugʻurta tashkiloti darajasida, yaʼni mikroiqtisodiyot pogʻonasida amalga oshirilmoqda, biroq makroiqtisodiyot darajasidagi sugʻurta risklari hanuzgacha yetarli darajada tadqiq etilmagan. Risklarni metodologik tahlil qilish sugʻurta faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini belgilovchi asosiy omillardan biri boʻlib qolmoqda.

Takror ishlab chiqarish majmuasidagi risklar rivojlanishining eng muhim asoslarini quyidagi tarzda identifikatsiyalash mumkin (1-rasm):




1-rasm. Takror ishlab chiqarish majmuidagi risklar rivojlanishining eng muhim asoslari[6]

Yuqoridagi holatlar sugʻurta sohasiga boʻlgan ehtiyojning ortishi va ushbu faoliyatning barqaror rivojlanishini talab etadi. Sugʻurta bozori va sugʻurta xizmatlariga boʻlgan talab hamda sugʻurta institutlarining rivojlanishi davr talabi sifatida koʻrib chiqiladi. Demak, takror ishlab chiqarish uzluksizligini taʼminlashda sugʻurta institutlarining oʻrni tobora ortib bormoqda.

Sugʻurta institutlari risklarni boshqarish xususiyatiga ega boʻlib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning barqarorligini taʼminlaydi. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlarining faoliyati doimo riskka moyil boʻlib keladi. Shuni inobatga olib, milliy iqtisodiyot har doim ham barqaror rivojlanishi mumkin emas, chunki risklarning taʼsiri salbiy oqibatlarga, ishlab chiqarish jarayonlaridagi sanatsiyaga olib keladi va funksional hamda tuzilmaviy tanazzulda namoyon boʻladi. Oʻz navbatida, sugʻurta bozori va uning institutlari mamlakat takror ishlab chiqarish majmui faoliyatining barqarorligi uchun javobgar hisoblanadi. Sugʻurta bozorining infratuzilmaviy tarkibi mamlakat milliy iqtisodiyotini barqarorlashtirishning asosiy tayanch omillaridan biri sifatida baholanadi.

6 Muallif ishlanmasi

Mamlakatda aholi va korxonalarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyati barqarorligini sug‘urta orqali ta’minlash ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalaridagi o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq.

Sug‘urta tashkilotlari sug‘urta mukofotlaridan yuqori bo‘lgan majburiyatlarni o‘z zimmalariga oladi. Sug‘urta hodisalari ehtimollik xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli sug‘urta fondlari investitsiyalarga yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan shakllantiruvchi manba hisoblanadi, ya’ni sug‘urta tashkilotlari milliy iqtisodiyotda pirovard mahsulot va qo‘shilgan qiymatni bevosita shakllantirishda ishtirok etmaydi.

Takror ishlab chiqarish jarayoni bosqichlarini o‘rganish va sug‘urta bozori professional ishtirokchilari bilan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish quyidagi holatlarda aniqlanadi:

- mahsulot ishlab chiqarish jarayonida resurs egalari o‘rtasida daromadni taqsimlash;
- tadbirkorlik kapitalining aylanish jarayoni davrida ishlab chiqarish vositalarining ishchi kuchi bilan munosabatlarga kirishi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni taqsimlash jarayonida olingan daromadlarning xarajatlarga nisbati va ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi bilan baholanishi;
- pirovard mahsulotlarni iste’molchiga yetkazib berish hamda tovar va pul munosabatlarini shakllantirish.

Sug‘urta takror ishlab chiqarish jarayonlarining ayirboshlash va taqsimlash bosqichlarida o‘z aksini topadi. Sug‘urta mukofotlarining netto qismi, ya’ni ishlab topilmagan sug‘urta mukofotlaridan tashkil topgan zaxira fondi investitsion resurs sifatida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan munosabatga kirishadi. Ishlab topilgan sug‘urta mukofotlari, ya’ni sug‘urta shartnomasi muddati tugaganligi sababli ishlab topilgan sug‘urta mukofotlari esa milliy iqtisodiyotning boshqa subyektlari bilan munosabatga kirmaganligi bois sug‘urta tashkilotining daromadi hisoblanadi.

O‘z navbatida, sug‘urta zaxiralarining real manbalari va ishlab chiqarish egalari daromadlari fondi uchinchi bosqichda, ya’ni ayirboshlash bosqichida shakllanadi. Ayirboshlash bosqichida mulkdorlarning daromadlaridan qayta taqsimlash orqali ikkilamchi daromadlar yaratiladi, shu sababli ushbu bosqich qayta taqsimlash bosqichi deb ataladi. Sug‘urtaning takror ishlab chiqarish tizimidagi roli va o‘rni 2-rasmda tasvirlangan.




2-rasm. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida sug‘urta faoliyatining shakllanishi[7]

Sug‘urtalovchi sug‘urta mukofotlarini sug‘urta tashkilotiga berish, sug‘urta xizmatini sotib olish jarayonida ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining taqsimlash bosqichida ishtirok etadi. Sug‘urta ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining taqsimlash bosqichi ishlab chiqarish jarayonidan oldin keladi, chunki to‘langan sug‘urta mukofotlarisiz sug‘urtalangan risklardan ko‘rilgan zararlar uchun sug‘urta qoplamalarini amalga oshirish mumkin emas. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida sug‘urta faoliyati sug‘urta zaxiralarini sug‘urta mukofotlari orqali shakllantirganda va sug‘urta tashkilotining shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini qabul qilib olganda hosil bo‘ladi. Sug‘urta tashkiloti tomonidan ishlab chiqarilgan sug‘urta xizmatlari bo‘yicha sug‘urta shartnomalarining hayotiylik davrida sug‘urtalanuvchining mulkiy manfaatlari himoyasi amalga oshiriladi. Sug‘urtalanuvchining mulkiy manfaatlarini himoya qilish ma’lum shartnomalar bo‘yicha sug‘urta zaxiralarini shakllantirish va sug‘urta

7 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

polisining amal qilishi bilan belgilanadi. Sug‘urta mahsulotining sifati sug‘urta shartnomasida belgilangan majburiyatlarning bajarilishi bilan aks etadi. Sug‘urta xizmatlarida sug‘urtalanuvchining mulkiy manfaatlarini himoya qilish jarayoni boshqa tizimdagi himoya qilish jarayonlaridan tubdan farq qiladi. “Masalan, moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish jarayonida dastlab mahsulot, tovar va xizmatning o‘zi ishlab chiqariladi, keyinchalik u iste’molchiga yetkaziladi va mahsulot va tovar uchun haq olinadi; sug‘urta faoliyatida, aksincha, birinchi xizmat sotiladi, keyinchalik esa u takror ishlab chiqarish jarayonida aks etadi”. Sug‘urta xizmatlarining narxi aktuar hisob-kitoblar yordamida, ehtimollik nazariyasi asosida va risklarning tarkibi sug‘urta tashkiloti tomonidan olinishi ko‘zda tutilgan risklar bilan namoyon bo‘ladi, qisqasi, sug‘urta tashkilotlari sug‘urtalanuvchiga “kafolat” yoki “va’da”ni sug‘urta polisi ko‘rinishida realizatsiya qiladi.

Sug‘urta sohasining ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi asosiy maqsadi sug‘urta tashkilotining zaxira fondlaridan investitsion manba sifatida foydalanish, tadbirkorlik subyektlari va aholining sug‘urta hodisasidan ko‘rgan zararini vaqtida bartaraf etish, sug‘urta tashkilotlarining soliq to‘lovchi sifatida ulardan foydalanish va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlashdan iborat.

Iqtisodiy globallashuv jarayonlari sug‘urta institutlarining globallashuv va integratsiyaga moyilligini ko‘rsatdi. Xalqaro integratsiya va hamkorlik sug‘urta tashkilotlariga qiymati yuqori bo‘lgan obyektlarni qayta sug‘urta mexanizmlaridan foydalanib risklardan himoyalash imkonini beradi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, katastrofik risklarni xalqaro qayta sug‘urtalash tizimida qayta taqsimlash kerak. Sug‘urta institutlarining bunday integratsiyasi iqtisodiyotning real sektorlari faoliyatining xalqaro ko‘lamda samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Iqtisodiy globallashuv milliy sug‘urta bozorini jahon standartlariga moslashtirishni taqozo etadi. Sug‘urta bozori boshqa moliyaviy bozorlardan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sug‘urta bozorida o‘ziga xos mahsulot sotiladi, ushbu mahsulotlarni iste’mol qilish natijasida aholi va tadbirkorlik subyektlari o‘z mulkiy manfaatlarini himoya qiladilar.

Sug‘urta bozori sotuvchi va xaridor o‘ziga xos mahsulotni sotish va sotib olish munosabatlarini shakllantiruvchi iqtisodiy makon sifatida namoyon bo‘ladi, sug‘urta mahsulotining sifatini ham tovar nuqtayi nazaridan faqat sug‘urta hodisasi bo‘lganida aniqlash imkoniyati mavjud. Yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini himoya qiluvchi, takror ishlab chiqarishning uzluksizligi va barqarorligini ta’minlash maqsadida zaxira fondini shakllantirish va ma’lum me’yorlar doirasida foydalanish, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini himoyalagan holda va ularning sug‘urta kafolatiga bo‘lgan ehtiyojini qondirgan holda ma’lum bir xizmatni sotib olish va sotish bo‘yicha iqtisodiy o‘zaro munosabatlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladigan, sug‘urta xizmatiga talab va taklif shakllanadigan, sug‘urta tashkilotlari va mijoz o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar paydo bo‘ladigan iqtisodiy mikrodunyo hisoblanadi.

Sug‘urta mahsulotining narxi barcha boshqa turdagi tovar va xizmatlar singari bozordagi raqobat nuqtayi nazaridan shakllanadi, sug‘urta mahsuloti narxi sug‘urta tariflari bilan belgilanadi, sug‘urta tariflari esa aktuar hisob-kitoblari orqali aniqlanadi. Sug‘urta bozorining ishtirokchilari o‘rtasidagi integratsiya ularning yaxlit tizim sifatida faoliyat yuritishlarini kafolatlaydi. Sug‘urta munosabatlarining ishtirokchilari, sug‘urta bozori infratuzilmasi vakillari turli xil determinantlar ta’sirida bo‘ladi, barcha shu yo‘sinda shakllanayotgan munosabatlar sug‘urta bozorining funksiyalari bilan namoyon bo‘ladi.

Sug‘urta munosabatlari sug‘urta xizmatlarini taklif etish bilan, sug‘urta mahsulotlari mijozlar tomonidan iste’mol qilinishi bilan belgilanadi. “Sug‘urta xizmati va sug‘urta mahsuloti bir ma’noni anglatadimi-yo‘qmi” degan savol tug‘iladi. Ba’zi adabiyotlarda ular bir ma’noda keladi, ba’zi adabiyotlarda esa ular farqlanadi.

Sug‘urta xizmati va sug‘urta mahsulotining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, “sug‘urta xizmati” va “sug‘urta mahsuloti” ta’riflari o‘rtasidagi farqni tizimlashtirib, ma’lum bir xulosaga kelishimiz mumkin. “Sug‘urta mahsuloti” sug‘urta tashkilotlari tomonidan ehtimoldagi sug‘urta hodisasi bo‘yicha risklar ta’siri natijasida ko‘rilgan zararlardan himoyalash vositasidir.

Sug‘urta xizmatlari sug‘urta klassifikatoriga asosan amalga oshiriladi, sug‘urta klassifikatori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan davlat nazorati organi tomonidan belgilanadi, har bir sug‘urta klassifikatoriga sug‘urta qoidalari ishlab chiqiladi, sug‘urta qoidalari namunaviy shartnoma va polislarni o‘z ichiga oladi. “Sug‘urta mahsuloti” tushunchasi sug‘urta xizmatining yanada to‘liq ifodasida gavdalanadi. “Sug‘urta mahsuloti” pirovard maqsadga erishish uchun amalga oshirilgan harakatlar majmuidir. Har qanday mahsulot tovar bo‘lishi mumkin, ammo barcha tovarlar mahsulot bo‘la olmaydi. Tovar, aksariyat hollarda, inson va jamiyatning ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulot hisoblanadi. Sug‘urta bozorida “mahsulot”, “xizmat”, “tovar” terminlari o‘ziga xosligi bilan aniqlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda sug‘urta sohasi “xizmat ko‘rsatish” sohasiga taalluqli degan fikr yuritiladi, chunki sug‘urta sohasida moddiy ne’mat yaratilmaydi va sug‘urta mahsuloti sug‘urta polisi ko‘rinishida gavdalanadi. Sug‘urta xizmatlari sug‘urta hodisasi ro‘y berganda sug‘urta tashkiloti tomonidan olingan majburiyat bo‘yicha javob berish hisoblanadi, sug‘urta mahsuloti esa o‘z ichiga turli xil xizmatlarni oladi va qo‘shimcha imkoniyatlar tug‘diradi. Sug‘urta xizmati sug‘urta mahsulotiga aylanishi bozorga olib chiqilgandan keyin hosil bo‘ladi, sug‘urta mahsuloti bozorda tovar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda risklar ko'lami va murakkabligi keskin ortib borayotgani sug'urta institutlarining strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Pandemiya, iqlim o'zgarishi, raqamli transformatsiya, geosiyosiy beqarorlik va demografik o'zgarishlar iqtisodiy subyektlar faoliyatini yuqori riskli muhitga aylantirdi. Bunday sharoitda sug'urta bozori nafaqat moliyaviy himoya mexanizmi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institutsional vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta tizimi takror ishlab chiqarish jarayonining taqsimlash va qayta taqsimlash bosqichlarida faol ishtirok etib, milliy iqtisodiyotda investitsion resurslar shakllanishiga xizmat qiladi. Sug'urta zaxiralari real sektorni moliyalashtirish uchun muhim manba bo'lib, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, sug'urta mahsuloti va sug'urta xizmati tushunchalarining farqlanishi sug'urta faoliyatining iqtisodiy mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Sug'urta mahsuloti bozor sharoitida tovar sifatida namoyon bo'lib, risklarni moliyaviy himoyalash funksiyasini bajaradi.

Xalqaro qayta sug'urtalash mexanizmlaridan foydalanish katastrofik risklarni samarali taqsimlash va milliy sug'urta bozorining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli sug'urta institutlarini global standartlarga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, sug'urta bozori iqtisodiy barqarorlik, tadbirkorlik faoliyati xavfsizligi va aholining mulkiy manfaatlarini himoya qilishda muhim tayanch institut sifatida e'tirof etilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Wagner, J., & Fuino, M. Risk Management & Introduction to Insurance. EPFL Press, 2023.
2. Lee, H. Risk Management: Fundamentals, Theory, and Practice in Asia. Springer, 2021.
3. Managing Environmental Risks through Insurance: Legal and Economic Aspects. Springer Cham, 2024.
4. Risk Management Issues in Insurance (Bloomsbury Publishing), 2015.
5. Chad, F. Systematic Review of Risk Management in the Insurance Sector. June 2025.
6. Мадрахимов, И. Ўзбекистон суғурта бозори портфели таҳлили. Green Economy and Development, 2025.
7. OECD, Eurostat. Oslo Manual: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. – Paris: OECD Publishing, 2018.
8. OECD. Frascati Manual: Guidelines for Collecting and Reporting Data on Research and Experimental Development. – Paris: OECD Publishing, 2015.
9. Swiss Re Institute. Innovations and Digital Transformation in Insurance. – Zurich, 2020.
10. McKinsey & Company. The Future of Insurance: Digitalization and Ecosystem Strategies. – 2021.
11. World Economic Forum. Innovation in the Insurance Industry: Technological Trends. – Geneva, 2019.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2025. № 11**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**